

## PEDAGOGIK TA'LIM SOHASIDA YOSHLARNING DUNYOQARASHI VA XULQ - ATVORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Ro'ziboyeva Azizaxon Abduqahhorovna

Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tuman 27-umumiy o'rta ta'lim maktab psixologi

+998941031190

azizaroziboyeva27@gmailcom

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15613922>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi zamon yoshlariga talim berish jarayonida yosh avlodga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va uning sabablari haqida bo'lib, yoshlarning jamiyaga moslashuvdagi umumbashariy qadryatlarning o'rni haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Yoshlar, jamiyat, axloq, xulq-atvor, dunyoqarash.

Insoniyat qadim zamonlardan o'z davomchilari bo'lmish yosh avlod taqdiri haqida qayg'urib kelgan. Farzandini o'zidanda baxtli bo'lishi haqidagi istagi insonni izlanishga, yangi kashfiyotlar yaratishga undadi. Shu bois insoniyat tarixida yangidan yangi ilm eshiklari ochilib bordi. Tabiiyki bunday yangiliklarning ko'payishi yosh avlod dunyoqarashi, uning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmas edi. Har tomonlama rivoj topib borayotgan bugungi kunda yoshlarimiz xulq-atvoriga ko'plab omillar sabab bo'lmoqda.

O'zining ko'p yillik madaniy tarixiga ega xalqimiz farzand tarbiyasi uning shaxs sifatida kamol topishi, xulq-atvor shakllanishiga alohida e'tibor qaratib kelgan. Yosh avlodni tarbiyalash, ularda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish va kamolga yetkazish muammolari doimo hukumat diqqat markazida turadi. Ma'naviy boylikni, axloqiy poklikni va jismoniy mukammallikni mujassamlashtirgan, har tomonlama kamol topgan, ijtimoiy jihatdan faol shaxsni shakllantirish borasida sobitqadamlik bilan ish olib borilmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2020-yil yanvar oyida Parlamentga qilgan murojaatida ham "Eng katta boylik-bu aql zakovat va ilm, eng katta meros- bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik- bu bilimsizlik" deya keltirib o'tgan fikrlari ham yoshlar tarbiyasi masalasi Davlat ahamiyati darajasida ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek pedagogi Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha ta'rif beradi: —Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqning yaxshiligini, yomon xulqning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladurgon kitobni axloq deyilur.

Axloq – inson hayotida o'z-o'zini idora qilish me'yorlarini, boshqalar bilan munosabatda bo'lish madaniyatini, halol ishlab, to'g'ri hayot kechirish mezonlarini o'rgatadi. Ibn Sino: —Axloq har bir kishi uchun o'z-o'zini idora qilish ilmidur, deb uning mazmunini ifodalab bergan edi.

Farzandlarimizning zamon talablari darajasida ilm olishi, har tomonlama komil shaxs bo'lishi uchun davlatimiz ham barcha shart-sharoitlarni yaratib bermoqda.

Yoshlar siyosati-bu yoshlarning muvafaqqiyati ijtimoiylashuvi va samarali o'zini namoyon qilishi uchun sharoit va imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan bo'lib, qator chora-tadbirlar tizimi hayotga tadbiiq etilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan hayotga tadbiiq qilinayotgan " besh muhim tashabbus"-bugun yoshlar muammolarini yechishga ular dunyo qarashini shakllantirishga yo'naltirilgan ustuvor vazifalardan biridi. Bugun yoshlar siyosatining asosiy yo'nalishlari deb quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

-yoshlarni jamoat hayotiga jalb qilish, rivojlanishning mumkin bo'lgan imkoniyatlari to'g'risida xabardor qilish;

- yoshlarning ijodiy faolligini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab quvvallash;
- qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan yoshlarni to'laqonli hayotga qo'shilishi.

Yoshlar bu ijtimoiy va yosh guruhlar bo'lib, ular yoshi va jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyiga qarab farqlanadi. Ba'zi olimlar tomonidan yoshlik deganda, jamiyat ijtimoiy rivojlanishi uchun imkoniyat yaratib beradigan, ularga imtiyozlar beradigan, ammo jamiyatning muayyan sohalarida faol ishtirok etish imkoniyatini cheklaydigan yoshlar majmuyi tushuniladi. Yoshlarning jamiyatga moslashishi, ular xulq-atvori va dunyoqarashining shakllanishiga bir qancha ijtimoiy omillarni sabab qilish mumkin. Avvalo, shaxs ulg'ayar ekan, turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar (oilalar, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat kollektivlari, norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshq.) bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakllanib, ular bevosita oilalar, bog'cha, maktab va boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasida ko'tarilsa, va unda yana yangidan - yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi va o'sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo o'qituvchi yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muhandis bo'lib, el-u - yurtiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta rol o'ynaydi. Iqtisodiy omillar asosan yoshlarning ahvoriga ta'sir qiladi. Masalan, bosqichma - bosqich bozor munosabatlariga o'tayotgan O'zbekiston sharoitini oladigan bo'lsak, yangicha iqtisodiy o'zgarishlar, bozor, rakobat, legalizatsiya va shunga o'xshash yangiliklar, har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo'lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi. Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, «Assalomu alaykum» deb kelishi - norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi - norma; xotinning er hurmatini o'rniga qo'yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik - norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi - norma va hakozi. Bu normalarni ayrim - alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muhrlanadi.

Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida ma'naviy omillar ham muhimdir. Hozirgi zamonda axloqiy me'yorlarni yo'qotish va an'anaviy me'yorlar va qadriyatlarni yo'q bo'lib ketish jarayoni kuchaymoqda. Bugunning yoshlari juda faol yangiliklarga qiziquvchan. Zamonaviy yoshlarning juda ko'pchiligi har bir sohada faol, lekin shu bilan birga ayrim toifa yoshlar tarix, iqtisod, siyosat kabi tushunchalar haqida noto'g'ri tushunchaga ega bo'lib qolmoqda. Hozirda yoshlarimizga kelayotgan axborot oqimlarining soni va tezligi yuqori darajada rivojlagan. Ularning kerakligini qabul qilib o'zlashtirib olish har bir yosh uchun dolzarb masala, chunki yoshlar dunyoqarashi shakllanishida axborotning o'rnini ham alohida ahamiyatlidir. Bugun yoshlarimizga ta'sir qilayotgan televizor, radio va matbuot kabilar o'rnini asta - sekinlik bilan "internet" nomli raqibiga bo'shatib bermoqda. Bugun har bir yosh internetdan foydalanish imkoniyatiga ega. Oilaning har bir a'zosida, ayniqsa, yoshlar orasida bugun internetga qarmlikni ko'rishimiz mumkin. Bugun internet yoshlarimiz dunyoqarashiga kata ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib qolmoqda. Aksariyat yoshlarimiz

bugun o'z muammolariga yechimni internetdan izlashga harakat qilmoqda. Ularni internetga qaramligi natijasida ular xulqida, psixologiyasida keskin o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ayrim yoshlarning haddan ortiq internetga bog'lanib qolishi natijasida ularda real hayotdan uzoqlashish, o'z qobig'iga o'ralib qolish va sog'ligida ham o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Ho'sh buning asosiy sababi nimada? Internetdan olingan axborotlar har doim ham foydali bo'lishi mumkinmi, bu ma'lumotlar bizning axloqiy qadryatlarimizga, an'analарimizga zid emasmi? Bugun yoshlarimizga mana shularni anglashga ko'mak berish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bugungi rivojlanayotgan zamonda yoshlarimizni har tomonlama komil inson bo'lib shakllanishida internet haqidagi to'g'ri xulosani bera olish uchun, eng avvalo, oilaviy muhit ota-onalar shaxsiy na'munasi alohida ahamiyatli. Oilaviy sharoitda bola, eng avvalo, ota-onalardan o'rnak oladi. Bundan tashqari uning atrofidagi do'stlari ham alohida o'rin tutib, yoshlarda internetga bo'lgan qaramlikni shakllanishiga turtki bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlar dunyoqarashi va xulq-atvorining shakllanishiga ta'sir qiluvchi internet omilidan to'g'ri va maqsadli foydalanish uchun bugun ularni milliy mentalitetimiz doirasida tarbiyalash, yoshlarning internetdan samarali foydalanishlari uchun nazoratni kuchaytirish, vaqtdan to'g'ri foydalanish tushunchalarini ular ongida shakllantirib borishimiz zarur. Buning uchun ota-onalar va maktab hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'ygan holda, farzandlarimiz qiziqishlarini hisobga olgan holda ularga dunyo bilimlarini yekazib borish lozim. Farzandlarimizga internetdan foydalanishning salbiy va ijobiy tomonlar haqida batafsil ma'lumot berish bugun dolzarb masala. Ko'pchilik yoshlar internetdan foydalanishda yangiliklar o'qish, musiqa tinglash, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish kabi, asosan, ko'ngilochar maqsadlarda foydalaniladi, lekin internetdan bundanda samarali foydalanish mumkin. Masalan, oddiygina xatni yozib elektron pochta oraqli uni dunyoning istalgan yeriga bir daqiqada jo'natish mumkin. Internetsiz bunday tezlikka erisha olish mumkinmi? Bundan tashqari ko'plab adabiyotlarni ham bugun internetdan topa olamiz. Manashunday ijobiy xususiyatlarni hisobga olib, yoshlarga internetdan maqsadli foydalanish yo'llarini o'rgatib borish zarur masala bo'lib qolmoqda. Zero yuqorida aytib o'tilganidek, bugunning yoshlari qiziquvchan va yangiliklarga chanqoq. Ularning qiziqishlarini to'g'ri baholab, kirib kelayotgan yangi axborot va ma'lumotlarni to'g'ri va aniq ifodalab farzandlarimizga yetkazar ekanmiz, biz yoshlarimiz ruhiyati va dunyoqarashiga ta'sir qiluvchi internet omilini to'g'ri yo'naltirgan bo'lamiz va yoshlarimiz dunyoqarashining yanada keng bo'lishiga erishamiz.

### References:

#### Используемая литература:

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh Mirziyoyev. Parlamentga murojaatnonasi. 2020-yil yanvar.
2. D. Abdullayeva. N. Ismoilova "Ijtimoiy psixologiya"
3. Jo'rayeva Gulasal. "Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar."
4. Xoluqova Zarnigor "Xulq-atvorni shakllantirish-shaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalishi sifatida"
5. "O'quvchi yoshlarning ijtimoiy -psixologik muammolari va yechimlari" Respublika psixologlar konferensiyasi
6. Internet manbaalari.